
«YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!» G'OYASI OSTIDA GALA-KONTSERT BO'LIB O'TDI

30 iyun — «Yoshlar kuni» munosabati bilan tuman hokimligi tomonidan tuman markazida «Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!» g'oyasi ostida gala-kontsert bo'lib o'tdi.



Tadbirda tuman yoshlari bayram bilan tabriklanib, davlatimizda Prezidentimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilayotganligi alohida ta'kidlandi. Bugungi kunda yoshlarimiz tomonidan bunday katta e'tiborga munosib tarzda javob qaytarib, Vatanimizning rivoji yo'lida o'z hissalarini qo'sha oladigan insonlar bo'lib kamol topishlari uchun zafarlar tilandi.

Kontsert dasturida taniqli san'atkorlar, estrada qo'shiqchilari va yosh ijodkorlar tomonidan ijro etilgan Vatanni, istiqlolni, yoshlikni madh etuvchi qo'shiqlar ishtirokchilarga yuqori kayfiyat ulashdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-24 20:56:24